

SCIENCE
PROBLEMS.UZ

ISSN 2181-1342

Actual problems of social and humanitarian sciences
Актуальные проблемы социальных и гуманитарных наук

**Ijtimoiy-gumanitar
fanlarning dolzarb
muammolari**

1-son (5-jild)

2025

SCIENCEPROBLEMS.UZ

**IJTIMOIIY-GUMANITAR FANLARNING
DOLZARB MUAMMOLARI**

№ 1 (5) - 2025

**АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО-
ГУМАНИТАРНЫХ НАУК**

ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

TOSHKENT-2025

BOSH MUHARRIR:

Isanova Feruza Tulqinovna

TAHRIR HAY'ATI:

07.00.00- TARIX FANLARI:

Yuldashev Anvar Ergashevich – tarix fanlari doktori, siyosiy fanlar nomzodi, professor, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi;

Mavlanov Uktam Maxmasabirovich – tarix fanlari doktori, professor, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi;

Xazratkulov Abror – tarix fanlari doktori, dotsent, O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti.

Tursunov Ravshan Normuratovich – tarix fanlari doktori, O'zbekiston Milliy Universiteti;

Xolikulov Axmadjon Boymahammadovich – tarix fanlari doktori, O'zbekiston Milliy Universiteti;

Gabrielyan Sofya Ivanovna – tarix fanlari doktori, dotsent, O'zbekiston Milliy Universiteti.

Saidov Sarvar Atabullo o'g'li – katta ilmiy xodim, Imom Termiziy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazi, ilmiy tadqiqotlar bo'limi.

08.00.00- IQTISODIYOT FANLARI:

Karlibayeva Raya Xojabayevna – iqtisodiyot fanlari doktori, professor, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti;

Nasirxodjayeva Dilafuz Sabitxanovna – iqtisodiyot fanlari doktori, professor, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti;

Ostonokulov Azamat Abdukarimovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor, Toshkent moliya instituti;

Arabov Nurali Uralovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor, Samarqand davlat universiteti;

Xudoyqulov Sadirdin Karimovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti;

Azizov Sherzod O'ktamovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent, O'zbekiston Respublikasi Bojxona instituti;

Xojayev Azizxon Saidaloxonovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent, Farg'ona politexnika instituti

Xolov Aktam Xatamovich – iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi;

Shadiyeva Dildora Xamidovna – iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent v.b, Toshkent moliya instituti;

Shakarov Qulmat Ashirovich – iqtisodiyot fanlari

nomzodi, dotsent, Toshkent axborot texnologiyalari universiteti

09.00.00- FALSAFA FANLARI:

Hakimov Nazar Hakimovich – falsafa fanlari doktori, professor, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti;

Yaxshilikov Jo'raboy – falsafa fanlari doktori, professor, Samarqand davlat universiteti;

G'aybullayev Otabek Muhammadiyevich – falsafa fanlari doktori, professor, Samarqand davlat chet tillar instituti;

Saidova Kamola Uskanbayevna – falsafa fanlari doktori, "Tashkent International University of Education" xalqaro universiteti;

Hoshimxonov Mo'min – falsafa fanlari doktori, dotsent, Jizzax pedagogika instituti;

O'roqova Oysuluv Jamoliddinovna – falsafa fanlari doktori, dotsent, Andijon davlat tibbiyot instituti, Ijtimoiy-gumanitar fanlar kafedrasini mudiri;

Nosirxodjayeva Gulnora Abdukaxxarovna – falsafa fanlari nomzodi, dotsent, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Turdiyev Bexruz Sobirovich – falsafa fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent, Buxoro davlat universiteti.

10.00.00- FILOLOGIYA FANLARI:

Axmedov Oybek Saporbayevich – filologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti;

Ko'chimov Shuxrat Norqizilovich – filologiya fanlari doktori, dotsent, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Hasanov Shavkat Ahadovich – filologiya fanlari doktori, professor, Samarqand davlat universiteti;

Baxronova Dilrabo Keldiyorovna – filologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti;

Mirsanov G'aybullo Qulmurodovich – filologiya fanlari doktori, professor, Samarqand davlat chet tillar instituti;

Salaxutdinova Musharraf Isamutdinovna – filologiya fanlari nomzodi, dotsent, Samarqand davlat universiteti;

Kuchkarov Raxman Urmanovich – filologiya fanlari nomzodi, dotsent v/b, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Yunusov Mansur Abdullayevich – filologiya fanlari nomzodi, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi;

Saidov Ulugbek Aripovich – filologiya fanlari nomzodi, dotsent, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi.

12.00.00- YURIDIK FANLAR:

Axmedshayeva Mavlyuda Axatovna – yuridik fanlar doktori, professor, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Muxitdinova Firyuza Abdurashidovna – yuridik fanlar doktori, professor, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Esanova Zamira Normurotovna – yuridik fanlar doktori, professor, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan yurist, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Hamroqulov Bahodir Mamasharifovich – yuridik fanlar doktori, professor v.b., Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti;

Zulfiqorov Sherzod Xurramovich – yuridik fanlar doktori, professor, O'zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti;

Xayitov Xushvaqt Saparbayevich – yuridik fanlar doktori, professor, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi;

Asadov Shavkat G'aybullayevich – yuridik fanlar doktori, dotsent, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi;

Ergashev Ikrom Abdurasulovich – yuridik fanlari doktori, professor, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Utemuratov Maxmut Ajimuratovich – yuridik fanlar nomzodi, professor, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Saydullayev Shaxzod Alixanovich – yuridik fanlar nomzodi, professor, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Hakimov Komil Baxtiyarovich – yuridik fanlar doktori, dotsent, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Yusupov Sardorbek Baxodirovich – yuridik fanlar doktori, dotsent, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Amirov Zafar Aktamovich – yuridik fanlar doktori (PhD), O'zbekiston Respublikasi Sudyalar oliy kengashi huzuridagi Sudyalar oliy maktabi;

Jo'rayev Sherzod Yuldashevich – yuridik fanlar nomzodi, dotsent, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Babadjanov Atabek Davronbekovich – yuridik fanlar nomzodi, dotsent, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Normatov Bekzod Akrom o'g'li — yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Rahmatov Elyor Jumaboyevich — yuridik fanlar nomzodi, Toshkent davlat yuridik universiteti;

13.00.00- PEDAGOGIKA FANLARI:

Xashimova Dildarxon Urinboyevna – pedagogika fanlari doktori, professor, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Ibragimova Gulnora Xavazmatovna – pedagogika fanlari doktori, professor, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti;

Zakirova Feruza Maxmudovna – pedagogika fanlari doktori, Toshkent axborot texnologiyalari universiteti huzuridagi pedagogik kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tarmoq markazi;

Kayumova Nasiba Ashurovna – pedagogika fanlari doktori, professor, Qarshi davlat universiteti;

Taylanova Shoxida Zayniyevna – pedagogika fanlari doktori, dotsent;

Jumaniyozova Muhayyo Tojiyevna – pedagogika fanlari doktori, dotsent, O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti;

Ibraximov Sanjar Urunbayevich – pedagogika fanlari doktori, Iqtisodiyot va pedagogika universiteti;

Javliyeva Shaxnoza Baxodirovna – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), Samarqand davlat universiteti;

Bobomurotova Latofat Elmurodovna — pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), Samarqand davlat universiteti.

19.00.00- PSIXOLOGIYA FANLARI:

Karimova Vasila Mamanosirovna – psixologiya fanlari doktori, professor, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti;

Hayitov Oybek Eshboyevich – Jismoniy tarbiya va sport bo'yicha mutaxassislarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish instituti, psixologiya fanlari doktori, professor

Umarova Navbahor Shokirovna– psixologiya fanlari doktori, dotsent, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti, Amaliy psixologiyasi kafedrasi mudiri;

Atabayeva Nargis Batirovna – psixologiya fanlari doktori, dotsent, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti;

Shamshetova Anjim Karamaddinovna – psixologiya fanlari doktori, dotsent, O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti;

Qodirov Obid Safarovich – psixologiya fanlari doktori (PhD), Samarkand viloyat IIB Tibbiyot bo‘limi psixologik xizmat boshlig‘i.

22.00.00- SOTSILOGIYA FANLARI:

Latipova Nodira Muxtarjanovna – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O‘zbekiston milliy universiteti kafedra mudiri;

Seitov Azamat Po‘latovich – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O‘zbekiston milliy universiteti;

Sodiqova Shohida Marxaboyevna – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O‘zbekiston xalqaro islom akademiyasi.

23.00.00- SIYOSIY FANLAR

Nazarov Nasriddin Ataqulovich –siyosiy fanlar doktori, falsafa fanlari doktori, professor, Toshkent arxitektura qurilish instituti;

Bo‘tayeov Usmonjon Xayrullayevich –siyosiy fanlar doktori, dotsent, O‘zbekiston milliy universiteti kafedra mudiri.

OAK Ro‘yxati

Mazkur jurnal Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi Rayosatining 2022-yil 30-noyabrdagi 327/5-son qarori bilan tarix, iqtisodiyot, falsafa, filologiya, yuridik va pedagogika fanlari bo‘yicha ilmiy darajalar yuzasidan dissertatsiyalar asosiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro‘yxatiga kiritilgan.

“Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari” elektron jurnali 2020-yil 6-avgust kuni 1368-sonli guvohnoma bilan davlat ro‘yxatiga olingan.

Muassis: “SCIENCEPROBLEMS TEAM” mas’uliyati cheklangan jamiyati

Tahririyat manzili:

100070. Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani, Kichik Beshyog‘och ko‘chasi, 70/10-uy. Elektron manzil:

scienceproblems.uz@gmail.com

Bog‘lanish uchun telefon:

(99) 602-09-84 (telegram).

MUNDARIJA

07.00.00 – TARIX FANLARI

<i>Xadjamuratova Matlyuba Xashimovna</i> YOSHLARNI IJTIMOIIY HIMOYA QILISHNING TARIXIY ILDIZLARI	11-15
<i>Abdimo‘minov Oybek Bektemirovich</i> MARKAZIY OSIYODA KO‘PTOMONLAMA MUNOSABATLAR: TARIXIY YONDASHUVLAR, SIYOSIY VA IQTISODIY INTEGRATSIYA	16-22
<i>Шадманов Турдибай Рузубаевич</i> ПРОБЛЕМЫ ПЛАНИРОВАНИЯ ПРИ СТРОИТЕЛЬСТВЕ ЖИЛЬЯ В УЗБЕКИСТАНЕ В ПЕРИОД 1940-1960 ГГ	23-27
<i>Мирзаева Наргиза Беркиновна, Рузиева Мухлиса Баходир кизи</i> ИНВАЛИДНОСТЬ И ЕЕ ИСТОРИЯ. СОЦИАЛЬНАЯ ЗАЩИТА ИНВАЛИДОВ В УЗБЕКИСТАНЕ	28-33
<i>Abdug‘aniyev Bekzod Abduvali o‘gli</i> SUG‘DIYLARDA DIN MASALASI: ZARDUSHTIYLIK VA MAZDAKIYLIK	34-40
<i>Umrzoqov Maqsud Shokirovich</i> V.L.VYATKINNING SAMARQANDNING TARIXIY YODGORLIKLARINI O‘RGANISHGA DOIR ISHLARI	41-46
<i>Ochildiyev Lochinbek</i> QASHQADARYO VOHASI TARIXIY-MADANIY YODGORLIKLARI, ZIYORATGOHLARI ULARNING TARIXIY-ETNOGRAFIK XUSUSIYATLARI	47-56
<i>Mamatqulov Bekzod, Bozorov Alisher</i> O‘ZBEKISTONDA SANOAT TARMOQLARINING RIVOJLANISHIDA JANUBIY VILOYATLARNING O‘RNI (1924-1991-YILLAR)	57-64

08.00.00 – IQTISODIYOT FANLARI

<i>Мамажонов Акрамжон</i> МОЛИЯВИЙ НАТИЖАЛАР (УМУМЛАШГАН ДАРОМАДЛАР) ТЎҒРИСИДАГИ ҲИСОБОТ ВА УНИ ШАКЛЛАНИШИ	65-71
<i>Xolmuratov Xolilla</i> O‘ZBEKISTONDA QAYTA TIKLANUVCHI ENERGIYA MANBALARINI RIVOJLANTIRISH VA ENERGO-SAMARADORLIKNI OSHIRISH ISTIQBOLLARI: IQTISODIY VA IJTIMOIIY TAHLIL	72-83
<i>Karimov Khojakbar</i> INNOVATION POTENTIAL AND TECHNOLOGICAL DEVELOPMENT IN UZBEKISTAN’S MANUFACTURING SECTOR: ENHANCING EFFICIENCY THROUGH AI-DRIVEN MANAGEMENT OF INNOVATIVE INFRASTRUCTURES	84-90
<i>Тўлаков Улуғбек Тошмаматович</i> СОЛИҚ МАЪМУРИЯТЧИЛИГИНИ ТАКОМИЛЛАШТИРИШДА ИННОВАЦИОН ЁНДАШУВЛАР	91-105

<i>Xolmurotov Fozil</i> RAQOBATBARDOSHLIKNI OSHIRISH VA EKSPORTNI RIVOJLANTIRISH ORQALI MINTAQAVIY IQTISODIY BARQARORLIKNI TA'MINLASH: NAZARIYA VA AMALIY YONDASHUVLAR	106-118
<i>Komilov Bakhtiyorjon</i> OPPORTUNITIES AND CHALLENGES IN E-COMMERCE LOGISTICS IN CENTRAL ASIA	119-129
<i>Abdusattorov Sodiqjon</i> TA'LIM XIZMATLARI BOZORIDA TADBIRKORLIK FAOLIYATI TURLARI	130-134
<i>G'anibayev Ilxomjon</i> AUDITORLIK DALILLARI ISHONCHLILIGINI TA'MINLASHDA INTERVYU USULINING AHAMIYATI	135-145
<i>Akhmedov Khasan</i> ISSUES OF IMPROVING THE SYSTEM OF COMPENSATION PAYMENTS UNDER COMPULSORY CIVIL LIABILITY INSURANCE	146-153
<i>Саттаров Абдусамат Умиркулович</i> МИНТАҚАВИЙ ИҚТИСОДИЁТДА БАҲОЛАШ МЕТОДИКАСИ ВА УНДА ЭКОНОМЕТРИК УСУЛЛАР	154-159
<i>Musamukhamedov Azimjon Jamoliddinovich</i> O'ZBEKISTONDA ISLOMIY MIKROMOLIYA: BARQARORLIK VA FAROVONLIK SARI ADOLATLI YO'L	160-168
09.00.00 – FALSAFA FANLARI	
<i>Xaitov Elmurod Bekmurodovich</i> DUNYO AHOLISINING O'SISH DINAMIKASIGA TA'SIR ETUVCHI IJTIMOYIY KO'RSATKICHLAR VA AHOLI HAYOT SIFATI	169-174
<i>Abdullayeva Xulkar Raxmatullayevna</i> BIOEPISTEMOLOGIYA YOKI EPISTEMOLOGIYADA FANLARARO YONDASHUVLAR	175-179
<i>Sulaymonov Maxmudjon Shuxratbekovich</i> O'ZBEKISTONDA FUQAROLIK POZITSIYASI SHAKLLANISHIGA TA'SIR KO'RSATUVCHI IJTIMOIY OMILLARNING FALSAFIY TAHLILI	180-185
<i>Berdaliyeva Sevara</i> YUSUF XOS HOJIBNING AXLOQIY QARASHLARINI SHAKLLANISHINING TARIXIY-IJTIMOYIY OMILLARI	186-198
<i>Ergashev Urolbek Berkinovich</i> AHMAD TOSHKO'PRIZODA ILMLAR TASNIFINING AHAMIYATI	199-205
<i>Qaxorov Pulotjon Xursanmurodovich</i> INSON GO'ZALLIGI VA UNING AXLOQIY VAHOSI	206-211
<i>Абдуллаходжаев Гайрат</i> ГЛОБАЛИЗАЦИЯ И ЕЁ ВЛИЯНИЕ НА ЭСТЕТИЧЕСКОЕ ВОСПИТАНИЕ МОЛОДЕЖИ	212-215
<i>Ro'ziyev Maqsud O'rinovich</i> ABULHASAN BAHMANYOR SHAXSIYATI VA MA'NAVIY MEROSI	216-220

10.00.00 – FILOLOGIYA FANLARI

<i>O'zbekov Umidjon Narzullo o'g'li, Boboqulova Nilufar Xayrullo qizi</i> BOSHLANG'ICH TA'LIM INGLIZ TILI DARSLARIDA OG'ZAKI NUTQNI SHAKLLANTIRISH	221-225
<i>Kamalova Madina</i> CHINGIZ AYTMATOV ASARLARIDA BOLA RUHIYATI	226-230
<i>Karimov Rivojiddin Gulamjonovich</i> DISCOURSE AND ITS LINGUOCULTURAL INTERPRETATION	231-240
<i>Baxtiyorova Maftuna Baxtiyorovna</i> INGLIZ TILIDA ANTROPONIMIK BIRLIKLARNING LEKSIK-SEMANTIK TAHLILI	241-246
<i>Nurmuxammedov Yusuf Shakarboyevich</i> FRAZEOLOGIK BIRLIKLARNING MA'NO QATLAMLARI, METAFORA VA METONIMIYA KABI LINGVISTIK HODISALAR BILAN ALOQASI	247-251
<i>Xujakulov Ravshan Isroilovich</i> INGLIZ VA O'ZBEK TILLARIDA XALQ TABOBATIGA OID LEKSIK BIRLIKLARNING DERIVATSION TADQIQI	252-258
<i>Olimova Khurshida Vaydillayevna</i> "PROPER NOUNS IN ENGLISH AND UZBEK: STRUCTURE AND THEIR UNIQUE FEATURES"	259-263
<i>Ermatov Ixtiyor, Risqulova Muslima</i> "DEVONU LUG'OTIT TURK" ASARIDA TOPONIMLARNING BERILISHI	264-269
<i>Abduraimova Dinara Bahodir qizi, Abdullayeva Nilufar Ramazonovna</i> INGLIZ TILIDAGI LEKSIK MATERIALLARNI BOYITISHDA ZAMONAVIY TEKNOLOGIYALARNING O'RNI	270-273
<i>Mardonov Maxmud</i> LATIFALARNI TASNIF QILISH MEZONLARI VA TASNIFOTI	274-280
<i>Nazarov Sardor Shamurodovich</i> A COMPARATIVE STUDY OF STRUCTURAL-SEMANTIC CHARACTERISTICS OF ENGLISH AND UZBEK LANGUAGE WORD COMBINATIONS	281-284

12.00.00 – YURIDIK FANLAR

<i>Абдурасулова Кумриниса Раимкуловна, Каракетова Дилноза Юлдашевна</i> КРИМИНОЛОГИЯДА САБАБИЯТ	285-302
<i>Yumatov Bogdan Olegovich</i> APPROACHES TO UNDERSTANDING THE PRINCIPLES OF ANTI-CORRUPTION MONITORING	303-309
<i>Абдурахманова Нодирахон</i> ПРОБЛЕМЫ ИМПЛЕМЕНТАЦИИ СМАРТ-КОНТРАКТОВ В ЗАКОНОДАТЕЛЬСТВО УЗБЕКИСТАНА	310-317
<i>Бекбутаева Лобар</i> СОЦИАЛЬНАЯ ЗАЩИТА ПРАВ ДЕТЕЙ-СИРОТ И ДЕТЕЙ, ОСТАВШИХСЯ БЕЗ ПОПЕЧЕНИЯ РОДИТЕЛЕЙ: МЕЖДУНАРОДНО-ПРАВОВЫЕ СТАНДАРТЫ И НАЦИОНАЛЬНЫЕ АСПЕКТЫ	318-323

<i>Nishonov Abdulloh Ubaydulloh o'g'li</i> CHIQUINDILARNI TRANSCHEGARAVIY TASHISH VA OLIB O'TISHNING XALQARO HUQUQIY TARTIBI	324-329
<i>Саидов Шохруххон Музаффарович</i> ПРОКУРАТУРА ОРГАНЛАРИНИНГ ҲУҚУҚ ИЖОДКОРЛИГИ ФАОЛИЯТИДАГИ ИШТИРОКИНИ БАҲОЛАШНИНГ ЎЗИГА ХОС ХУСУСИЯТЛАРИ	330-338
<i>Maxmudov Sunnat Azim o'g'li</i> AYBLILIK TO'G'RISIDAGI MASALANI HAL QILMAY TURIB JINOYAT ISHINI TUGATISH TARTIBI: QONUNCHILIKDAGI MUAMMOLAR TAHLILI	339-348
<i>Inomxo'jaeva Sanobar Muxammadixonovna</i> JAMIYATDA HUQUQIY ONGNI RIVOJLANTIRISHDA HUQUQIY TARBIYA USULLARINING AHAMIYATI	349-355
<i>Mirzakarimova Dilafroz Doniyorovna</i> SUN'IY INTELLEKT, ROBOTOTEXNIKA VA HUQUQ: SUN'IY INTELLEKTNING XAVFSIZ KIBERXAVFSIZLIK TIZIMLARIGA TA'SIRI	356-362
<i>Raximjonova Nargizaxon Raximjonovna</i> YAGONA JINOYATNING JINOYAT-HUQUQIY TAVSIFI	363-368
<i>Dehqanov Raxmatilla Mirzaraxmat o'g'li</i> ISTE'MOLCHILAR ISHTIROKIDAGI TRANSCHEGARAVIY MUNOSABATLAR UCHUN QO'LLANADIGAN HUQUQ	369-374
13.00.00 - PEDAGOGIKA FANLARI	
<i>Iminaxunova Iroda Xuseynovna</i> DIAGNOSTIK YONDASHUV ASOSIDA XORIJIY TILNI O'QITISH IMKONIYATLARI	375-379
<i>Xusanova Mohira</i> XORIJIY TILLARNI O'QITISH VA NAZORAT QILISHNING MAZMUNI	380-386
<i>Haqberdiyev Baxtiyor Rustamovich</i> TEXNIK VA SAN'AT FANLARINI INTEGRATIV O'QITISHDA SINERGETIK KOMPETENTLIKNI TAKOMILLASHTIRISH	387-391
<i>Erkulova Feruza Melikuziyevna</i> THE ROLE OF METHODOLOGICAL TRAINING IN ENHANCING PROFESSIONAL COMPETENCE OF FOREIGN LANGUAGE TEACHERS	392-402
<i>Malikova Madina Abduraxmon qizi</i> INGLIZ TILI DARSLARINI O'QITISH JARAYONIDA HAMKORLIK VA KOOPERATIV O'QITISH TEKNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISHNING USTUVOR USULLARI	403-407
<i>Умаров Азиз Авазович</i> РОЛЬ ДИАЛОГИЧЕСКОЙ РЕЧИ В ОБУЧЕНИИ РУССКОМУ ЯЗЫКУ: МЕТОДИЧЕСКИЕ АСПЕКТЫ	408-412
<i>Рахмонова Шалола Фахриддин кизи</i> ЖАМИЯТ РИВОЖЛАНИШИДА МЕДИА КОМПЕТЕНЦИЯНИНГ ЎРНИ	413-417
<i>Boymirzaeva Raximaxon Xoshimjonovna</i> XALQ TA'LIMI PEDAGOGLARNI MALAKASINI OSHIRISH JARAYONIDA HUQUQIY ONG VA HUQUQIY MADANIYATINI YUKSALTIRISHGA OID XORIJ TAJRIBASI	418-427

<i>Jamolova Mohigul Baxtiyorovna</i> BO'LAJAK CHET TILI FANI O'QITUVCHILARINING TANQIDIY FIKRLASH QOBILİYATLARINI RIVOJLANTIRISHNING NAZARIY VA METODIK ASOSLARI	428-432
<i>Raxmatov Mirzo Mukimovich</i> BO'LAJAK INFORMATIKA O'QITUVCHILARIGA DASTURLASH TILLARINI O'QITISHNI TAKOMILLASHTIRISHDA SEMIOTIK YONDASHUV	433-438
<i>Umirova Mamlakat Imomovna</i> NUTQIY MADANIYATNI O'STIRISHNING NAZARIY VA AMALIY ASOSLARI	439-442
<i>Nafasov Arslon Komilovich</i> TARIX FANINI O'QITISH PEDAGOGIK TADQIQOTLAR OBYEKTI SIFATIDA	443-448
<i>Valiyeva Nasiba Xadiytullayevna</i> OLIY TA'LIMDA O'QITISHNI RAQAMLASHTIRISHDA ZAMONAVIY PEDAGOGIK METOD VA MODELLAR	449-455
<i>Мухаммадиева Угиллой Холмуродовна</i> ФОРМИРОВАНИЕ НАВЫКОВ И КОМПЕТЕНЦИЙ В ОБЛАСТИ СИНХРОННОГО ПЕРЕВОДА У СТУДЕНТОВ	456-463
<i>Qosimova Ozoda Xudoynazarovna</i> PEDAGOG XOTIN-QIZLARNING IJTIMOY FAOLLIGINI RIVOJLANTIRISHNING IJTIMOY- PEDAGOGIK TAHLILI	464-472

Received: 20 December 2024

Accepted: 5 January 2025

Published: 15 January 2025

Article / Original Paper

MODERN PEDAGOGICAL METHODS AND MODELS IN DIGITALIZATION OF TEACHING IN HIGHER EDUCATION

Valiyeva Nasiba Xadiytullayevna,

Graduate school of business and entrepreneurship

Foreign languages and business communication department,
assosiate professor

Abstract. This article discusses new methods of delivering lectures to the higher education system and reverse control.

Keywords: higher education, digital transformation, flipped classroom model, behaviorist theory, constructivist theory, digital technology, media resources, blended education.

OLIY TA'LIMDA O'QITISHNI RAQAMLASHTIRISHDA ZAMONAVIY PEDAGOGIK METOD VA MODELLAR

Valiyeva Nasiba Xadiytullayevna,

Biznes va tadbirkorlik oliy maktabi

Chet tillar va biznes kommunikatsiyasi kafedrasida dotsenti

E-mail: vanasib@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada oliy ta'lim tizimiga ma'ruzalarni olib borishning yangi "teskari sinf" usullari va ularning samaradorligi borasida fikr yuritilgan.

Kalit so'zlar: oliy ta'lim, raqamli transformatsiya, teskari sinf modeli, behavioristik nazariya, konstruktivistik nazariya, raqamli texnologiyalar, aralash ta'lim.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V5I1Y2025N62>

Kirish. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyoyevning "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi qarorida [1] oliy ta'limni modernizatsiya va o'zgartirish asosiy vazifalardan biri hisoblanadi deb belgilangan. Xalqaro tadqiqotlar raqamli texnologiyalardan foydalanishga asoslangan ta'lim jarayonining mahsuli an'anaviy tarzda ta'lim jarayonining mahsulidan ko'ra samaraliroqligini ko'rsatmoqda. Raqamli transformatsiya sharoitida oliy ta'lim muassasasining iqtisodiy samaradorligi kompleks yondashuvni talab qiluvchi ko'p qirrali jarayon bo'lib, bunda miqdoriy va sifat ko'rsatkichlarini hisobga olish, shuningdek, ta'lim bozorining tez o'zgaruvchan sharoitlariga moslashish muhim ahamiyatga ega.

Oliy ta'limning raqamli transformatsiyasi ta'limning qulayligi, uzluksizligi va sifatini ta'minlashda raqamli resurslardan foydalanishning yangi istiqbollari ochadi. Universitetlar ta'lim va ta'lim jarayonini qayta ko'rib chiqmoqda, ta'lim muhitini raqamli texnologiyalar, usullar va resurslar bilan to'ldirmoqda. Ta'lim jarayoniga yangi texnologiyalar –multimedia

texnologiyalaridan tortib virtual va to'ldirilgan reallik texnologiyalarigacha faol joriy etish dolzarb masalalardan biridir. Yangi raqamli didaktika shakllantirilmoqda va ishlab chiqilmoqda, bu bizga o'rganishga integratsiyalashgan kompetensiyaga asoslangan yondashuvni tezda amalga oshirish va kasbiy kompetensiyalarni va kasbiy faoliyatga tayyorlikni shakllantirish imkonini beradi.[2] O'qitishni raqamlashtirishda zamonaviy pedagogik metodlarni hamda modellarni o'zlashtirishni ongli va rejali amalga oshirish, multimedia vositalari, kompyuter texnologiyalari, pedagogik dasturiy vositalar, kompyuter savodxonlikning eng muhim jihatlaridan foydalanish va ulardan foydalanish ko'nikmalarini foydalanuvchilarga yetkazib berish asosiy vazifalardan hisoblanadi.[3]

Adabiyotlar tahlili va metodologiya. Mazkur izlanish ta'limda yangi tajribadan o'tayotgan "teskari sinf" modelini tatbiq etish jarayonlarini, afzalliklari va muammolarini muhokamasiga doir internet muhitidagi maqolalarni, xorijiy ta'lim trenerlarning kanallaridagi muhokamalarni, YouTube materiallarni va mahalliy ekspertlarning qo'llanmalari asosida empirik metod yordamida olib borilgan.

Muhokama va natijalar. Raqamli texnologiyalarni darsni rejalashtirganda o'qitish jarayoniga olib kirish yangicha model hisoblanadi. Bu model xorijiy ta'limda **flipped classroom** – *teskari sinf* modeli nomini olgan.

Teskari sinf modeli an'anaviy o'rganish usullariga yangicha yondashuvi va unga bog'liq bo'lgan ko'plab afzalliklari tufayli butun dunyo bo'ylab o'qituvchilar orasida tezda mashhur bo'lib bormoqda. Biroq, bir qarashda teskari sinf tushunchasi oddiy bo'lib tuyulishi mumkin bo'lsa-da, o'qituvchilar o'z sinflarining har birining o'quv maqsadlariga moslasha oladigan juda ko'p farqlar mavjud.[4]

Flipped classroom modeli aralash o'qitishning shaklidir.[5] Bu model yuzma-yuz o'qitish shakli bilan raqamli texnologiyalarni uyda va auditoriyada qo'llashning kombinatsiyasidir. Mazkur model ikkita nazariyani mujassam etadi: behavioristik nazariya va konstruktivistik nazariya. Tinglovchilarga uyga vazifa video formatda beriladi ular kerakli ma'lumotni qabul qilgan holda bilimni tekshiruvchi mashqlarni bajaradilar. Bu usul shaxsga yo'naltirilgan bo'ladi. Auditoriyada olib borilgan faoliyat asosan guruhda ishlash, vazifa bajarishga asoslangan bo'ladi va bu konstruktivistik nazariyaga asoslangan o'qitish usulidir.

I.X. Berdiyeva aytishicha "teskari sinf" modelida o'qituvchi tomonidan barcha o'quv materiallari semestr avvalida talabalar platformasiga barcha uchun ochiq holda qo'yiladi. O'quv materiallari matnlar, audio va video fayllar, me'yoriy hujjatlar va birinchi manbalar bo'lishi mumkin.[3]

Russel Stannard, ta'lim berish bo'yicha treneri, flipped classroom modelini Blumning taksonomiyasiga o'xshatadi. Bunda pastki bosqichlarni, ya'ni birlamchi ma'lumotni o'zlashtirish (eslab qolish, tushunish va qo'llash) jarayonini tinglovchilarga uy vazifasi sifatida beriladi. Taksonomiyaning yuqori fikrlash ko'nikmalarini rivojlantiruvchi bosqichlardagi ya'ni tahlil, baholash va ijod qilish faoliyatni dars davomida pedagogning yo'riqnomalari yordamida guruhda ishlash, muhokama qilish va masalaga yechim topish kabi o'qitish texnikalari qo'llagan tarzda olib borish maqsadga muvofiqdir. Flipped classroom modelini sinfda qo'llash uchun o'qituvchi sinfni boshqarish ko'nikmasiga ega bo'lishi kerak.

Internet muhitidagi ma'lumotlarni tahlil qilish natijasida mazkur modelni ta'lim sohada faoliyat olib borayotgan pedagoglarning aksariyati qo'llab quvvatlaydi va ushbu usul ko'proq oliy ta'lim muassasalariga mosligini ta'kidlaydilar. Jumladan, Norma Blandon flipped classroom

modelidan oliy ta'limda 6 yil mobaynida talabalar bilan darslarni muvaffaqiyatli olib borgan va juda yaxshi natijalarga erishgan.[4] Tadqiqotchi ekspertlarning ta'kidlashicha "teskari sinf" modeli ko'proq ijtimoiy-gumanitar soha mutaxassislari uchun samarali bo'lib, amaliy mashg'ulotlarning ko'payishi hisobiga professional ko'nikma va malakalarni shakllanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.[5]

Ushbu yangi yondashuv dunyoning ko'plab o'qituvchilar va talabalar orasida mashhur bo'lishining sababi — u ma'ruza uslubidagi katta hajmdagi o'qitishdan voz kechib sinf vaqtini talabalar o'z bilimlarini rivojlantirishi mumkin bo'lgan turli guruhlariga ishlashga asoslangan faoliyatga yo'naltirilganligidadir.

2021-yilda Kvinslend universiteti psixologiya professori Maykl Notel boshchiligidagi Avstraliyalik olimlar guruhi ta'lim video formati oliy ta'limda samarali ekanligini aniqlash uchun ko'plab ilmiy maqolalarni o'rganishdi. [4] Natija shuni ko'rsatdiki, video materiallarni taqdim etishning boshqa usullariga nisbatan interaktivlik ko'proq bo'lsa, yaxshi natijalar beradi. Oddiy qilib aytganda, videoni tomosha qilgan va uni bir-biri bilan muhokama qilgan talabalar ma'ruzani indamay tinglagan yoki darslikni o'qiganlarga qaraganda yaxshiroq bilimga ega bo'ladilar. Ammo interaktivlik nuqtai nazaridan bir xillik sharoitida video eng yaxshi ta'lim natijasini bermaydi, aksincha, eng yaxshi natijalarni videoni ko'rgan va muhokama qilganlarga qaraganda o'qituvchi bilan yuzma-yuz darsda ishlaganlar ko'rsatadi. Ya'ni ushbu modelni aralash ta'limda qo'llasa samarasi yuqori bo'lishi tasdiqlandi. Munozaralar ma'ruzalarning interaktivligini oshirgani kabi, onlayn munozaralar va videoga qo'shilgan savollar multimedia muhitida konstruktiv o'rganish imkoniyatlarini yaratib beradi. Avstraliyalik mualliflar izlanish natijalar asosida taxmin qiladilarki o'qitish kontentini video formatga o'tkazish samaradorligi o'qituvchilarning faol o'qitishni qo'llab uni kuchaytirganda namoyon bo'ladi. «Endi mening darslarimda ma'ruzaga o'xshash narsa yo'q», deydi Maykl Notel. «Sinflar barcha talabalar nimadir bilan band, talabalar qo'llaydilar, xato qiladilar, fikr-mulohaza oladilar, onlaynda ko'rgan narsalarni sinab ko'rishadi.»

Auditoriyada ma'ruzani oldindan ko'rib o'rganib kelgan talabalar bilan o'qituvchi bo'shagan vaqtni qanday mashg'ulotni olib borishda 8ta teskari sinf modeli taklif etilgan:[5]

1. Oddiy teskari sinf modeli. Bu model shundan iboratki, talabalarga odatda onlayn videolar va kontent orqali o'quv materiallaridan foydalanish imkoniyati beriladi, bu ularga mavzu bo'yicha asosiy bilimlarga ega bo'lgan darslarda qatnashish imkonini beradi. So'ngra darsda o'quvchilar olgan bilimlarini amalda qo'llaydilar va tushunchalarini kengaytiradilar.

Ko'pgina hollarda, bu yondashuv sinfda olib boriladigan darslarni yanada qiziqarli va interaktiv bo'lishiga yordam beradi. Bunda o'qituvchilar asosiy ma'lumotni yetkazish uchun kamroq vaqt sarflab talabalarning tushunchalarini rivojlantirish uchun ko'proq vaqt sarflashga imkonini bo'ladi.

2. Guruhda ishlash asosida teskari sinf modeli. Bu model oddiy teskari sinfga o'xshaydi, lekin asosiy e'tibor guruh faoliyatiga qaratilgan. Bu shuni anglatadiki, talabalar sinfga kelgandan so'ng, mavzuni chuqur tushunish uchun guruhlariga ajratiladi va birgalikda ishlaydilar. Bunday faoliyat ularda raqobat qilish imkonini beradi, shu bilan birga, mavzuni tengdoshlariga tushuntirishni o'rganish orqali mavzuni yaxshiroq o'zlashtirishni ta'minlaydi.

Ba'zi o'qituvchilar jamoaviy ish elementlarini uyda o'qitish bosqichiga kiritish orqali ushbu modelning jamoaviy jihatini ta'kidlaydilar.

3. Munozaraga yo'naltirilgan teskari sinf. Munozaraga yo'naltirilgan teskari sinf quyidagicha ishlaydi: talabalar uyda dastlabki ma'lumotni oladilar, so'ngra darsga qatnashadilar va tengdoshlari bilan munozara yoki bir qator munozaralarga kirishadilar. Turli tadqiqotlar shuni ko'rsatdiki, bahs-munozaralar talabalarning faolligini oshirishi, shu bilan birga o'quv natijalarini yaxshilashi mumkin. Munozaralar, shuningdek, mavzu doirasidagi ba'zi murakkabliklar va turli nuqtai nazarlarni ochib berish orqali tushunishni kuchaytirishi mumkin.

Bundan tashqari, bahs-munozaralar uyda o'rganilgan ma'lumotlarni mustahkamlashga yordam beradi, bu esa bilimlarni yuqori darajada saqlashga olib keladi.

4. Munozaraga yo'naltirilgan teskari sinf. Munozaraga yo'naltirilgan teskari sinfda talabalar uyda mavzuni ko'pincha o'quv video kontentidan foydalanish orqali o'rganadilar. Uydan ular darsga masofaviy qatnashadilar va mavzuni ancha chuqurroq muhokama qiladilar, ba'zi nyuanslarni ochib beradilar, tushunchalarini kengaytiradilar va turli nuqtai nazarlarni o'rganadilar. Biroq, bu rasmiy munozaradan kutilganidan ko'ra qulayroq muhitda sodir bo'ladi.

Bunday aniq yondashuv, ayniqsa, mazmuni muhim bo'lgan va savollarga oson yoki to'g'ri javob bermasligi mumkin bo'lgan tarix, ingliz tili, siyosat va san'at fanlarini o'qitishda muhim bo'lishi mumkin.

5. Mikro-teskari sinf. Ushbu model mohiyatan an'anaviy va teskari sinf yondashuvlarini birlashtirish usuli bo'lib, o'qituvchilarga an'anaviy ma'ruzaga asoslangan dars o'tkazish uchun biroz vaqt beradi va shu bilan birga talabalar va o'qituvchilarga teskari sinf modelini ba'zi afzalliklarini taqdim etadi.

Ma'lum bo'lishicha, mikro teskari sinf modeli qo'llanilgan ta'limda an'anaviy ma'ruzaga asoslangan ta'limga qaraganda talabalarning kurs baholari ikki ballga yaxshilangan va bu yondashuvning afzalliklari vaqt o'tishi bilan ortib bormoqda.

6. Sinf ichidagi sinf modeli. Teskari sinf modeldagi o'qitishni tanqid qiluvchilarning aksariyati raqamli bo'linish g'oyasiga va talabalar uyda kerakli texnologiyaga ishonchli, tez-tez yoki teng ravishda kirish imkoniga ega bo'lmaganda nima sodir bo'lishiga qaratilgan. Sinf ichidagi sinf modeli bu muammoni hal qilishga qaratilgan.

Asosiy yondashuv o'zgarmasdan qoladi: onlayn ma'lumotdan keyin ko'proq amaliy dars o'tkaziladi, lekin boshlang'ich o'qitish ta'lim maskanida kompyuterlar yordamida amalga oshiriladi. Bunda moslashuvchanlik ham mavjud, chunki o'qituvchi butun sinfga materialini ko'rsatishi yoki dars boshida barcha talabalarga ma'lumotni mustaqil ravishda o'rganishi uchun vaqt ajratishi mumkin. Shu bilan bir qatorda, talabalarni ta'lim maskanida kompyuterlardan foydalanishga undashi mumkin, ammo baribir asosiy vazifalarini darsdan tashqari vaqtida bajarishlari talab qilinadi.

7. Virtual teskari sinf. Nomidan ko'rinib turibdiki, virtual teskari sinf talabalari birinchi navbatda onlayn resurslardan ma'lumot oladilar xuddi oddiy teskari sinf yondashuvidagidek, ammo asosiy farq shundaki, keyingi darslar ham virtual muhitda onlayn o'qitiladi. Asosan, bu teskari sinf modelidan sinfxonaga kelish imkoni bo'lmagan holatlarda, shuningdek masofaviy ta'lim va gibrid o'qitish ta'limda foydalanish imkonini beradi. Vaziyatga qarab, bu modelda yuzma-yuz darslar va shaxsiylashtirilgan darslarni birlashtirilishi mumkin. Ular muntazam ravishda yoki kelishilgan vaqt oralig'ida o'tkazilishi mumkin, bu o'z navbatida o'qituvchilarga talabalarning muvaffaqiyatni yanada yaqinroq kuzatish imkonini beradi.

8. Teskari o'qituvchining yondashuvi. Teskari sinfning eng noyob namunalaridan biri bu teskari o'qituvchi modeli bo'lib, ba'zida ikki tomonlama teskari sinf deb ataladi. Bu modelda o'quvchilar mavzu bo'yicha o'z tushunchalarini ko'rsatish uchun o'quv materiallarni, masalan, videoroliklar yaratishga taklif qilinadi. Muhokama va munozaraga asoslangan teskari sinfga o'xshab, bu yondashuv talabalar o'rganishlarini mustahkamlashga yordam beradi.

Ushbu yondashuv, shuningdek, texnologik ko'nikmalarni rivojlantirishga yordam berish va talabalarga akademik ta'lim tajribasini taqdim etish kabi qo'shimcha afzalliklarga ega, bu esa akademik o'sishni maqsad qilganlar uchun manfaatli bo'lishi mumkin.

Ammo shuni ham ta'kidlash kerakki, teskari o'rganish degan atama mavjud. Qaytarilgan o'rganish sinfda ko'proq metodologiyalarni amalga oshirish uchun guruhli o'quv joylarini individual o'quv joylariga aylantirishni anglatadi. Xuddi shunday, talaba va o'qituvchi rollari o'zgartiriladi, ammo o'rganish va o'girilgan sinf bir-birini almashtirib bo'lmaydi.

Teskari sinfdan foydalanish har qanday yoshdagi odamlar uchun mumkin, ammo yoshi kattaroq o'quvchilar bilan yaxshi ishlashi mumkin. Buning sababi, agar siz qat'iy onlayn kontentdan foydalansangiz, talabaning zimmasiga katta mas'uliyat yuklanadi. [1]

Flipped classroom modelini ketma-ket barcha darsda qo'llash shart emas, asosiysi talabalarga va o'qituvchiga ma'qul bo'lsa, undan samarali foydalana olishsa bu degani o'qitish jarayoni muvaffaqiyatli kechdi va maqsadga erishildi.

Flipped classroom usulining afzalliklarini keltirib o'tamiz:

Talabalar uchun darsga doir bo'lgan kontentga xohlagan vaqtda kirishi mumkin;

O'z o'qishi uchun mas'ul ekanini tushunib yetishi;

Material video formatda beriladi;

Savollari bo'lsa uyda yozib keladi. Shuningdek talabalar uyga berilgan vazifasi bo'yicha skype, Googledoc yordamida muhokama qilishligi mumkin;

Dars davomida tayyor bo'lgan talabalar o'rganish mavzu asosida juftlikda, guruhda va individual tarzda o'qituvchidan maslahat oladi, faoliyati davomida bilim a ko'nikmalarini rivojlantiradilar;

O'qituvchilarga bu usul materiallarni shaxsiylashtirishga, moslashtirishga va interaktiv tarzda darslarni o'tkazishga imkon beradi; [2]

Videolarni YouTube bazasidan tanlab berish imkoniyati borligi;

O'qituvchi o'zini ma'ruzasini videoga olib berishi mumkinligi.

Pedagog materialni qayta-qayta takrorlamaydi, uni platformadan tinglovchi kerak bo'lganda o'zi olib o'rganadi.

Flipped classroom usulda o'qituvchi raqamli texnologiyalarni ishtirokida darslarini loyihalashtiradi.

Teskari sinf modelining joriy etishda nima muammolar kelib chiqishi mumkin?

Ushbu modelni tajribadan o'tkazgan ayrim chetellik talabalarni fikriga ko'ra bu model tinglovchilar bilan kelishib amalga oshirilishi kerak. Ular uchun qulay usulni tanlash kerak. [3] Ma'lumotni qabul qilish tezligi, vazifalarni mustaqil bajarish va mas'uliyat darajasi xar xilligi talabalarga moslashishga to'siq bo'lishi mumkin. Buning natijasida o'qitish jarayoni samarasiz bo'ladi.

Keyingi masala talabalarga o'qituvchilar tomonidan mavzuga doir bo'lmagan yoki zerikarli bo'lgan video kontentni raqamli tizimga joylashtirishi. Bunga vaqt ketkazgan va

foydali narsa olmagan talaba sinfda faol ishtirok eta olmaydi, motivatsiyasi soʻnadi. Ushbu usulni qoʻllaydigan oʻqituvchining masʻuliyatini oshirish kerak.

Koʻpchilik talabalar vazifalar haddan tashqari koʻp deb bajarmaydilar. Yechim sifatida Russel Stannard oz-ozdan boshlash kerakligini taʻkidlaydi. Bunda oʻqituvchi qisqa video bilan unga tegishli maxsus vazifalar berilishini maslahat beradi.

Mazkur usuldan xar darsda foydalanish kerakmi degan savollar xam yoq emas. Fikrimizcha oʻqituvchi fanidan kelib chiqqan xolda oʻziga maʻqul usulni tanlashi kerak. Oʻqitish jarayonida bir nechta usulni qoʻllash ham maqsadga muvofiq.

Bu usul oʻqituvchilarni dangasa qiladi va ular mazmunli oʻqitish jarayonini amalga oshirmaydilar degan fikrlar xam bor. Bunga javob tarzida shuni aytish mumkinki, oʻqituvchi materialni talabalarga berishdan avval oʻzi oʻrganib chiqadi, tahlil qiladi va tanlab oladi. Taʻlim berishda qoʻyilgan maqsadga erishish uchun kerakli xulosalar chiqaradi va oʻqitish jarayonini tashkillashtiradi. Talabalarga maqsadli yoʻnalish bera oladi.

Va yana bir muammo bu flipped classroom modelini qoʻllaganda talabalarni bilimini baholashdir. Sinf ichidagi mashgʻulotdan oldin oʻqituvchi ham, talabalar ham talabalarining sinf ichidagi mashgʻulotlarga yetarlicha tayyor yoki tayyor emasligini bilishdan foyda olishlari mumkin. Oʻz-oʻzini baholash viktorinalari yoki yengil darajadagi onlayn viktorinalar talabalarining yetarli darajada tayyorligini baholashning yaxshi usuli boʻlishi mumkin. Eng maʻqul boʻladigan baholash bu videomaterialdan oʻrganganlarini qoʻllash imkoniyatini beruvchi qisqa 3- 4ta savollarni oʻz ichiga oladi. Baholash savollari boʻyicha shakllantiruvchi fikr-mulohazalar va talabalarining oʻqituvchiga oʻz savollarini berish imkoniyati ham kiritilishi mumkin. Talabalarining tayyorgarlik darajasini tekshirish uchun qisqa topshiriq yoki teskari sinfning sinf ichidagi qismining boshida baholash orqali ham taqdim etilishi mumkin. Oʻrganish va baholash oʻzaro bogʻliqdir: yengil darajadagi yoki formativ baholash talabalar uchun ahamiyatli oʻrganish vositasidir [4].

Teskari sinf modelini muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun bir qator tavsiyalarni keltirib oʻtamiz:

1. Teskari sinf modeli raqamli texnologiyalarga asoslanganligini inobatga olgan xolda pedagoglar va talabalarining raqamli texnologiyalardan foydalanish imkoniyati borligi va koʻnikmalarga egaligiga ishonch hosil qilish kerak.
2. Oʻqitish platformasida talabalar va oʻqituvchi onlayn muloqotni amalga oshirish imkoniyati boʻlishi lozim.
3. Boshlangʻich bosqichda uyga beriladigan video material va vazifalar tinglovchilar uchun tushunarli tarzda yengil qabul qilish uchun moʻljallangan boʻlishi kerak. Oʻqituvchilar uy vazifasini berishda quyidagi resurslardan — Youtube videolari, shaxsiy videolar (Camtasia yoki boshqa raqamli texnologiya instrumentidan foydalangan xolda yozib olingan maʻruzalar), onlayn vazifalar varaqlari, turli savol javob viktorinalaridan foydalanishi mumkin.
4. Teskari sinf modelini sinfda qoʻllash uchun oʻqituvchi sinfni boshqarish koʻnikmasiga ega boʻlishi kerak.

Xulosa. Oʻqitishni raqamlashtirishda zamonaviy pedagogik metodlarni hamda modellarni oʻzlashtirishni ongli va rejali amalga oshirish, multimedia vositalari, kompyuter texnologiyalari, pedagogik dasturiy vositalar, kompyuter savodxonlikning eng muhim jihatlardan foydalanish va ulardan foydalanish koʻnikmalarini foydalanuvchilarga yetkazib

berish ta'limning asosiy vazifalardan hisoblanadi. Chet ellik pedagoglarning aksariyati teskari sinf modelini qo'llab quvvatlab, uni ko'proq oliy ta'lim muassasalariga mosligini ta'kidlaydilar. Flipped classroom modeli aralash o'qitishning shaklidir. Bu model yuzma-yuz o'qitish shakli bilan raqamli texnologiyalarni uyda va auditoriyada qo'llashning kombinatsiyasidir. Teskari sinf modeli talabalarga uyda o'z tezligida asosiy bilimlarni olish imkonini berib, bu o'zlashtirishdagi qiyinchilikni sezilarli darajada kamaytiradi, shuning uchun dars vaqtini munozaralar, bahslar va guruh faoliyati kabi o'rganishning bir qancha faol usullariga ochib beradi. O'qituvchilar talabalari bilan birga erishmoqchi bo'lgan ta'lim natijalariga mos keladigan sinf modellarini tanlashlari imkoni mavjud. Teskari sinf modeli talabalarga odatda onlayn kontentdan foydalangan holda asosiy materiallarni mustaqil o'rganish imkonini beradi. Darsda qatnashganda, o'qituvchi ma'ruza o'qish o'rniga talabalarga mavzu yuzasidan amaliy topshiriqlarni bajarish uchun yo'l-yo'riq ko'rsatadi va qo'llab-quvvatlaydi.

Adabiyotlar/Литературы/References:

1. Altemueller L., Lindquist C. Flipped classroom instruction for inclusive learning. *British Journall of Special Education*, 44(3), 2017. – P. 341-358.
2. Ismoilov A.A. Ta'lim jarayonida raqamli texnologiyalardan foydalanish istiqbollari /Ta'lim jarayonida raqamli texnologiyalarni joriy etish samaradorligi 4J. 2017. – B. 246-248.
3. O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida» O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmoni, 08.10.2019 yildagi PF-5847-son <https://lex.uz/ru/docs/-4545884>
4. Valiyeva N.X., Alimov B.B. Biznes va tadbirkorlik oliy maktabining raqamli muhitini takomillashtirish istiqbollari. *Iqtisodiy taraqqiyot va tahlil ilmiy electron jurnali*, 2024. – 123 b.
5. Блинова Т. В. Цифровая трансформация высшего образования – вызов времени: аннотированный библиографический указатель / научная библиотека Челябинского государственного университета. – Челябинск: 2021. – 281 с.

SCIENCEPROBLEMS.UZ

IJTIMOIIY-GUMANITAR FANLARNING DOLZARB MUAMMOLARI

№ 1 (5) – 2025

АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО- ГУМАНИТАРНЫХ НАУК

ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

“Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari” elektron jurnali 2020-yil 6-avgust kuni 1368-sonli guvohnoma bilan davlat ro‘yxatiga olingan.

Muassis: “SCIENCEPROBLEMS TEAM”
mas’uliyati cheklangan jamiyati

Tahririyat manzili:

100070. Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani, Kichik Beshyog‘och ko‘chasi, 70/10-uy. Elektron manzil:

scienceproblems.uz@gmail.com

Bog‘lanish uchun telefon:

(99) 602-09-84 (telegram).